

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING
AHAMIYATI

Sulaymonova Nafisa Nurullayevna
Rahmonova Dilfuza Botirovna
Yodgorova Sitorabonu Amon qizi

Buxoro viloyati Jondor tumani 10-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7521422>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'linda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati borasida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik munosabatlar, ijtimoiy va psixologik muhit, tarbiya komponentlarini, pedagogik jarayonda hamkorlik.

**ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ
ОБРАЗОВАНИИ**

Аннотация. В данной статье представлена информация о значении педагогических технологий в начальном образовании.

Ключевые слова: педагогические отношения, социально-психологическая среда, воспитательные компоненты, сотрудничество в педагогическом процессе.

**IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY
EDUCATION**

Abstract. This article provides information on the importance of pedagogical technologies in primary education.

Key words: Pedagogical relations, social and psychological environment, educational components, cooperation in the pedagogical process.

Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'limgan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzlusiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

Ta'limg-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'limg oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'limg jarayonining subyekti - ta'limg-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta`lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanadi. Binobarin har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzlusiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayotganligi va o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelayotganligi, o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli vositalar mavjudki ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Uchinchidan, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyaga uzlusiz kirib kelishi va jonli o'quv ob'ektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metodika doirasidan chiqib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo'llashga ehtiyojni tug'dirmoqda.

Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta'lim sifati, samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim.

REFERENCES

1. N.N. Azizzojayeva. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. Oliy o'quv yurti o'qituvchilarini va malaka oshirish kurslari tinglovchilarini uchun metodik qo'llanma. T.: 2007.
2. В.П. Беспалко. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. — М.: ИРПО, 1995.
3. J.G'. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: O'qituvchi, 2004.
4. "Kasb etikasi" (Bahodir Husanov, La'lixon Muhammadjonova, Himoya Haydarova, 2012).